



**Xorazm Milliy tabiat bog'ida muhofazaga olingan qushlar turlari va ularning
bioekologik xususiyatlari.**

X.Z. Ilxombekova-Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat Universiteti
biologiya yo'nalishi talabasi.ilxombekovax@gmail.com.

Annotatsiya.. Mazkur ilmiy maqolada Xorazm milliy tabiat bog'i hududida muhofazaga olingan qushlar turlarining xilma-xilligi, ularning sistematik tarkibi hamda bioekologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Hudud Amudaryo deltasiga yaqin joylashgani sababli suv-botqoqli, to'qay va cho'l ekotizimlariga xos noyob va kamyob qushlar uchraydi .

Kalit so'zlar:Bioxilma-xillik, ornitofauna, muhofaza, bioekologiya, migratsiya, to'qay ekotizimi, suv-botqoq hududlar, kamyob turlar.

Аннотация.В данной научной статье анализируется разнообразие охраняемых видов птиц на территории Хорезмского национального природного парка, их систематический состав и биоэкологические особенности. В связи с тем, что территория расположена вблизи дельты Амударьи, здесь встречаются редкие и исчезающие виды птиц, характерные для водно-болотных, тугайных и пустынных экосистем.

Ключевые слова: биоразнообразие, орнитофауна, охрана, биоэкология, миграция, тугайная экосистема, водно-болотные угодья, редкие виды.

Abstract.This scientific article analyzes the diversity of protected bird species in the -territory of the Khorezm National Nature Park, their systematic composition, and bioecological characteristics. Since the area is located near the Amu Darya delta, it hosts rare and endangered bird species typical of wetland, tugai, and desert ecosystems.

Keywords: biodiversity, ornithofauna, conservation, bioecology, migration, tugai ecosystem, wetlands, rare species.

Kirish.O'zbekiston Respublikasida tabiiy hududlarni muhofaza qilish davlat ekologik siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Xorazm viloyati hududida joylashgan Xorazm milliy tabiat bog'i Amudaryo quyi oqimi mintaqasining o'ziga xos to'qay va suv-botqoq ekotizimlarini qamrab oladi. Mazkur hudud ko'plab qush turlari, ayniqsa migratsion va kamyob turlar uchun muhim yashash va to'xtash maskani hisoblanadi Xususan, Xorazm viloyatida joylashgan Xorazm Milliy tabiat bog'i Amudaryo havzasidagi noyob tabiiy majmualarni muhofaza qilish maqsadida tashkil

FRANCE

etilgan. Hududda to‘qayzorlar, qamishzorlar, suv havzalari va yarim cho‘l landshaftlari mavjud bo‘lib, ular ko‘plab qushlar uchun oziqlanish, ko‘payish va migratsiya davrida to‘xtash maskani vazifasini bajaradi. Qushlar ekotizim barqarorligini taminlashda, zararkunandalarni nazorat qilishda hamda bioindikator sifatida alohida ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili. Aleksandr Ivanovich Sagitov(1950–1985).O‘zbekiston hududidagi suv qushlari va cho‘l qushlari ekologiyasi bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan, Qizilqum va Amudaryo deltasi avifaunasini o‘rgangan.Dmitriy Pavlovich Dementyev(1930–1960).

Markaziy Osiyo qushlari sistematikasi va muhofazasi bo‘yicha fundamental ishlar qilgan, O‘zbekiston avifaunasi bo‘yicha ilmiy tasniflash ishlarida qatnashgan.Mikhail Aleksandrovich Meklenburtsev(1940–1975).O‘zbekiston va qo‘shni hududlar qushlari biologiyasi, migratsiyasi hamda noyob turlarni muhofaza qilish masalalarini o‘rgangan. Evgeniy Petrovich Korovin(1920–1950)Markaziy Osiyo faunasini, jumladan, O‘zbekiston hududidagi qushlar tarqalishi va ekologik sharoitlarini tadqiq qilgan.Olimjon Oripov(1980–2015).O‘zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan qush turlari monitoringi va ularni muhofaza qilish strategiyalarini ishlab chiqishda ishtirok etgan.Bahodir Sultonov(1995-2020) Qushlar migratsiyasi, antropogen omillarning tasiri va biologik xilma-xillikni saqlash masalalarida ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

Tadqiqot metodikasi. Tadqiqotlar 2023–2025-yillar davomida dala kuzatuvlari asosida olib borildi. Quyidagi metodlardan foydalanildi:marshrut (transekt) usuli orqali vizual kuzatuv,binokl va fotoqayd etish vositalari yordamida identifikatsiya,ovoz orqali aniqlash, biotoplar kesimida hisobga olish,statistik tahlil usullari,qush turlarini aniqlashda xalqaro ornitologik tasnifdan foydalanildi.

Muhokama.Hududda uchraydigan muhofazaga olingan qushlarning bioekologik xususiyatlari quyidagicha tavsiflanadi:Ushbu turlarning saqlanishi bevosita suv ekotizimlari va to‘qayzorlarning holatiga bog‘liq. Antropogen bosim, brakonerlik va yashash muhitining qisqarishi asosiy xavf omillari hisoblanadi.

Xorazmda qushlarning asosiy to‘planish hududi – Amudaryo deltasi, suv omborlari va ko‘llar tizimi.Ko‘pchilik suv qushlari migratsiya davrida (bahor va kuz) ko‘p uchraydi.Yirtqich qushlar asosan cho‘l va ochiq landshaftlarda.ko‘pchilik turlar O‘zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan.

Natija.Tadqiqotlar natijasida Xorazm milliy tabiat bogi hududida 100 turdan ortiq qush turi tarqalganligi o‘rganildi. Ulardan 25 dan ortig‘i muhofazaga olingan va kamyob turlar sirasiga kiradi.

Xorazm milliy tabiat bogi hududida muxozozaga olingan qushlarning turlari va ularning tarqalish xususiyatlari

	O'zbekcha nomi	Ilmiy nomi	Turkumlari	Xorazmda tabiat bog'ida tarqalishi
I-Suv va suv bo'yi qushlari				
1	Qiyqirdoq qoqush	Cygnus cygnus	Anseriformes	Qishlovchi, kam sonli
2	Vishildoq oqqush	Cygnus columbianus	Anseriformes	Migratsiya davrida, kam
3	Marmar churрак	Marmaronetta angustirostris	Anseriformes	Juda kam, Qizil kitob turi
4	Qizilg'oz	Tadorna ferruginea	Anseriformes	Keng tarqalgan, ko'payadi
5	Oqbosh o'rdak	Oxyura leucocephala	Anseriformes	Kam sonli, himoyaga muhtoj
6	Olaqanot	Anas querquedula	Anseriformes	Migratsiyada ko'p
7	Kichik oqqo'ton	Microcarbo pygmaeus	Suliformes	Kam, ayrim suv havzalarida
8	Qoshiqburun	Spatula clypeata	Anseriformes	Keng tarqalgan migratsion tur
9	Qoravoy	Aythya fuligula	Anseriformes	Qishlovchi, o'rtacha son
10	Qizil bosh o'rdak	Aythya ferina	Anseriformes	Migratsiyada va qishda ko'p
II-Yirtqishlar turkumi(Lochinsimonlar)				
11	Suv qirg'iri	Pandion haliaetus	Accipitriformes	Migratsiyada kam
12	Oqdumli suv burguti	Haliaeetus albicilla	Accipitriformes	Qishlovchi, kam
13	Turkiston ilonburguti	Circaetus gallicus	Accipitriformes	Yozda uchraydi, kam
14	Cho'l bo'ktargisi	Buteo rufinus	Accipitriformes	Keng tarqalgan
15	Cho'l burguti	Aquila nipalensis	Accipitriformes	Migratsiyada vaqti-vaqti bilan
16	Katta olachipor burgut	Clanga clanga	Accipitriformes	Kam, migratsiyada
17	Qironqora	Aquila chrysaetos	Accipitriformes	Juda kam
18	Burgut	Aquila heliaca	Accipitriformes	Kam, Qizil kitob turi
19	Kichik burgut (dasht burguti)	Hieraaetus pennatus	Accipitriformes	Yozda kam sonli

III-Suv bo`yi, o`rmon va dasht qushlari				
20	Oq laylak	Ciconia ciconia	Ciconiiformes	Keng tarqalgan, ko'payadi
21	Qorabosh baliqchi	Larus ichthyaetus	Charadriiformes	Katta suv havzalarida
22	Oqbovor	Chlidonias hybrida	Charadriiformes	Yozda uchraydi
23	Qorakaptar	Columba livia	Columbiformes	Keng tarqalgan
24	Oddiy qirg'ovul	Phasianus colchicus	Galliformes	Amudaryo bo'ylarida ko'p
25	Turkiston qirg'ovuli	Phasianus colchicus turcestanicus	Galliformes	Mahalliy kenja tur, keng

Xulosa. Xorazm Milliy tabiat bog'i hududi O'zbekistonning shimoli-g'arbiy qismida joylashgan muhim ornitologik hudud hisoblanadi. Bu yerda uchraydigan muhofazaga olingan qushlar biologik xilma-xillikni saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning bioekologik xususiyatlarini chuqur o'rganish va monitoring tizimini takomillashtirish kelajak avlod uchun tabiiy merosni asrashga xizmat qiladi. Hududda muhofazaga olingan kamida 25 dan ortiq noyob qush turlari uchraydi. Suv-botqoqli hududlar migratsion qushlar uchun muhim ahamiyatga ega, Yirtqich qushlar populyatsiyasi nisbatan barqaror, biroq ayrim turlar soni kamayish xavfi ostida, ekotizimni tiklash va monitoringni kuchaytirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dadaev S, Saparov Q, Zoologiya "Turon-Ikbol" nashriyoti. Toshkent 2019 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobi "Chinor ENK" nashriyoti Toshkent. 2019y.
3. J. Laxanov. O'zbekistonnig umurtqali hayvonlari aniqlagichi. Fan va texnologiya nashriyoti. Toshkent 2013 y.
4. Т.Ф.Орипов. Хоразмнинг ноёб ҳайвонлари. Тошкент .2006 й.